


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



## **RESEARCH CONDUCTED ABROAD AND IN UZBEKISTAN BASED ON THE STUDY OF THE WORK OF TAVORIKHI GUZIDA NUSRATNOMA**

*Surayya Ulugbekovna Gafurova*

*senior lecturer, Ph.D*

*Fergana State University*

*Fergana, Uzbekistan*

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** Historical source, copy-version, author of the work, basmala, colophon, writing, nasta'liq, printing, lithography.

**Received:** 15.05.24

**Accepted:** 17.05.24

**Published:** 19.05.24

**Abstract:** This article provides information about the history of writing the work "Tawarihi Guzida - Nusratnama", its copies and the author. Research conducted abroad and in Uzbekistan on the study of historical works, especially written sources, is listed. In particular, the opinions of scientists who studied the work "Tawarihi Guzida - Nusratnama" and their scientific works were expressed. Differences between studies are shown and important aspects are described.

## **"TAVORIXI GUZIDA NUSRATNOMA" ASARINI O'RGANISH YUZASIDAN XORIJDA VA O'ZBEKISTONDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR**

*Surayyo Ulugbekovna Gafurova*

*katta o'qituvchi, PhD*

*Farg'onadavlat universiteti*

*Farg'ona, O'zbekiston*

### **MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Tarixiy manba, nusxa, asar muallifi, basmala, kolofon, yozma yodgorlik, nasta'liq xati, muhr, toshbosma.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "Tavorixi guzida – Nusratnama" asarining yozilish tarixi, uning nusxalari, muallifi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tarixiy asarlarni, xususan, yozma manbalarni o'rganish bo'yicha xorijda va O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar sanalgan. Jumladan, "Tavorixi guzida – Nusratnama" asarini tadqiqi etgan olimlar va ularning ilmiy ishlariiga munosabat bildirilgan. Tadqiqotlarning bir-biridan farqlari ko'rsatilgan, muhim jihatlari bayon etilgan.

**ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОВЕДЕННЫЕ ЗА РУБЕЖОМ И В УЗБЕКИСТАНЕ НА  
ОСНОВЕ ИЗУЧЕНИЯ ТРУДОВ ТАВОРИХИ ГУЗИДЫ НУСРАТНОМА**

**Сурайя Улугбековна Гафурова**

старший преподаватель, PhD

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** Исторический источник, копия, автор произведения, басмала, колофон, памятная запись, свидетельство о рождении, печать, литография.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об истории написания Нусратнамы, ее копиях и авторе. Перечислены исследования, проведенные за рубежом и в Узбекистане по изучению исторических трудов, особенно письменных источников. В частности, в журнале «Таварихи» сообщалось об учёных, исследовавших Нусратнаму, и их научных работах. Показаны различия между исследованиями и описаны их важные аспекты.

**KIRISH**

XX asrlarda yuzaga kelgan tadqiqotlarda yozma yodgorliklarni o‘rganish asosida muayyan davr tiliga xos xususiyatlar yoritildi. Turkolog olimlar K.Brokkelman, V.Bang, V.Shott, O.Byotling, M.Ryasyanen, V.V.Radlov, P.M.Melioranskiy, S.E.Malov, N.A.Baskakov, E.V.Sevortyan, A.M.Shcherbak, S.N.Ivanov, G.F.Blagovalarning adabiy-badiiy yodgorliklar tilini o‘rganish asosida qadimgi, eski turkiy til xususiyatlari yoritilgan tadqiqotlari yuzaga keldi. Xususan, rus olimlari ayrim tarixiy manbalar tilini o‘rganishdi hamda ba’zilarining tanqidiy matnini yaratishdi.

Shuningdek, olimlardan X.Vamberi, Ya.Ekmann, V.Bartold, A.Semyonov, B.Grekov, A.Yakubovskiylar ham filologik, ham tarix nuqtai nazaridan Shayboniyxon va shayboniylar davrini, boshqaruv tizimini, hukmdorlar faoliyatini o‘rganganlar. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, Shayboniy o‘z umrining aksariyat qismini janglarda, ulov ustida o‘tkazganiga qaramasdan, ko‘p ilmlarni, sohalarni puxta egallagan, tarix, din, adabiyot va boshqa fanlarni yaxshi bilgan. Sharqshunos A.Semyonov olimlar ko‘p hollarda Shayboniyxonning darbadarlikda hayot kechirishiga qaramasdan, qanday qilib bunday kamolotga erishganiga doim hayratlanishadi, deya yozadi[1,70]. Shayboniy faoliyatini yaxshi o‘rgangan olim X.Vamberi xonning ma’rifatparvarligi haqida so‘z yuritib, quyidagilarni yozadi: “... u doimiy janglardagi odam hisoblansa ham, maorif va madaniyat to‘g‘risida o‘z zamonining ruhidan to‘la xabardor. Davridagi tengdosh qalam sohiblarining aksaridan ortiq darajadagi qalam egasi bo‘lgan. Sababi uning she’rlari, dushmanlaridagi fikrlarning aksi bo‘lishi bilan birga, buyuk bir iqtidor va go‘zal

*tabiatga uyg‘un ekanini ko‘rish mumkin. U ham turkiy, ham fors, ham arab tillaridan voqif... U maorif jihatidan avvalgi temuriy shahzodalarining aksariyatidan past emas edi”[2,91-92].*

### ASOSIY QISM

Shayboniyxon tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan “Tavorixi guzida – Nusratnama” bo‘yicha ilk ma’lumot Ch.Ryo asarida keltiriladi[3,276-280]. Asar haqidagi ilk qisqacha keltirilgan qaydlar V.Bartoldning 1902 yilda Turkiston safari haqida tayyorlangan ma’ruzasida tilga olinadi, A.Semenov, K.Petrovlarning izlanishlari orasida uchraydi[4].

1815 yil Buxoroda kitobning qisqartirilgan variantini so‘zboshida o‘zini qo‘ng‘iroq urug‘idan bo‘lgan o‘zbekman, deb tanitgan Allamurod Annaboy o‘g‘li ko‘chirib yozgan. Ushbu nusxani 1849 yilda I.N.Beryozin tomonidan turkiy tilda nashr etilgani haqida ilk bor V.V.Bartold o‘zining Amudaryo tarixi masalasiga doir tadqiqotlarida aytib o‘tadi[5,18]. Shuningdek, ushbu qisqartirilgan nusxa haqida akademik Karl Germanovich Zaleman ham o‘z izlanishlarida qisqacha fikr bildirib o‘tgan[6]. “O‘g‘uz, Alanquvo va Shayboniynoma” deb nomlangan ushbu qisqartirilgan nusxa boshqa bizga ma’lumlari orasida eng avval tuzilgani sanaladi. Allamurod Annaboy o‘g‘lining muallif yoki ko‘chiruvchi xattot ekanligi haqida baxslar bor. Bizningcha, uni xattot emas, balki tuzuvchi, desak, to‘g‘riroq bo‘ladi. Yozma yodgorlikda u o‘zini muallif darajasiga chiqargan[7,99]. Sababi asar “Tavorixi guzida – Nusratnama”ning qisqartirilgan ko‘rinishi bo‘lib qolmay, muallifning shaxsiy ijodiy fikrlari bilan ham boyigan.

Muallif o‘zi haqida, asarga kimning topshirig‘i bilan qo‘l urgani haqida birorta ma’lumot keltirmaydi. Qo‘lyozma 99 sahifadan iborat bo‘lib, nasta’liq xatida yozilgan[8,58-63].

Asar uch qismdan iborat: 1. O‘g‘uzxonidan Alanqoagacha bo‘lgan voqealar, Chingizzonning afsonaviy ajdodlari. 2. Qo‘ng‘iroq urug‘i va avlodlari haqida. 3. Shayboniynoma.

O‘rta Osiyo olimlaridan Rossiya Fanlar akademiyasida Turkiston tarixi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlagan, tarix bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan R.G.Muqminova, S.A.Azimjonova, B.A.Ahmedov, S.K.Ibragimov, S.T.Bekmuradov hamda A.M.Akramovlarning izlanishlari orqali asar haqida ma’lum ma’lumotlarga ega bo‘lamiz[9]. Ushbu olimlardan faqat A.M.Akramovgina asarni bugungi kunda to‘liq hisoblangan Londonning Britaniya muzeyida saqlanayotgan nusxasidan foydalangan holda matnshunoslik nuqtai nazaridan to‘liq tadqiq etgan. Kitobdan ayrim parchalar 1969 yili Olma-Otada V.P.Yudin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va nashr etilgan[10].

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu olim rahbarligida va bevosita ishtirokida chop etilgan yirik asar “Materialы po istorii kazaxskix xanstv XV—XVII vekov (Izvlecheniya iz persidskix i tyurkskix sochineniy)”da juda ko‘p muhim manbalarning, jumladan, “Tavorixi guzida – Nusratnama”ning ham tarjimalari tekshirilgan va umumiyl tahrir qilingan, 10 ta manbadan ko‘chirmalar tarjima qilingan, ularga sharhlar yozilgan, shuningdek, manbashunoslikka oid 17 ta

katta va ilmiy darajasi yuqori bo‘lgan maqolalar kiritilgan[11]. Bu maqolalarda olim tarixiy manbashunoslikka oid keng ko‘lamli masalalarni hal etishga muvaffaq bo‘lgan.

V.V.Stasov Britaniya muzeyida saklanayotgan “Tavorixi guzida – Nusratnama” asaridagi illyustratsiya nusxalarini tadqiq etdi, asar 1902 yilda nashr etilgan bo‘lib, “Vizantiya, bolgar, rus, eski o‘zbek va forsiy qo‘lyozmalar miniatyuralari” deb nomlangan. Olim o‘z to‘plamida XVI asrning birinchi yarmiga tegishli bo‘lgan uchta manba haqida to‘xtalib o‘tadi, ularning barchasi eski o‘zbek tilida yozilgan: Muhammad Shodiyning “Fatxnomayi xon”, “Shayboniynoma” va “Tavorixi guzida – Nusratnama” asarlari qo‘lyozmalari edi[12]. Asarlarga ishlangan suratlar shayboniylarning buyuk qahramonliklarini aks ettiradi, shuningdek, ularda harbiy g‘alabalar, tarixiy zafarlar, taxtga o‘tirish voqealari tasvirlangan. Qo‘lyozmalardagi miniatyuralarda umumiy o‘xshashliklar mavjud bo‘lib, ular harbiy sahnalarda, ot-arava, qurol-aslaha va kiyim-kechaklarda kuzatiladi. V.V.Stasovning qayd etishicha, ularda milliy va mo‘g‘ul uslublari sezilib turadi. XIV-XV asr miniatyuralari keyingi davr uchun namuna sifatida xizmat kilgan.

Rossiya FA sharq qo‘lyozmalari institutida saqlanayotgan №V-745 raqamli nusxani P.Lerx o‘z to‘plamidan taqdim etgan[13,56]. Uning 1858 yilda Buxoro va Xivaga sayohat qilishidan maqsadi sharq qo‘lyozmalarini izlab topish va to‘plash bo‘lgan. Buxoroda u aynan “Tavorixi guzida – Nusratnama” asari nusxasini qo‘lga kiritib, 1859 yilda uni Rossiya Fanlar akademiyasi Osiyo muzeyiga topshirgan.

O‘zbek tilshunoslari tomonidan XV-XVI asrda yaratilgan asarlar tilining fonetik, leksik va grammatik qurilishini o‘rganish bo‘yicha bajarilgan ishlar ayniqsa diqqatga sazovordir. Keyingi yillarda yozma yodgorliklar tilining xususiyatlarini o‘rganish sohasida juda ko‘p ilmiy tadqiqotlar olib borildi, monografiyalar chop etildi. Xususan, o‘zbek tilshunos olimlaridan S.Mutallibov, E.Fozilov, A.Qayumov, Q.Mahmudov, Sh.Shukurov, G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov, Q.Sodiqovalar manbalar tilini o‘rganishdi hamda ba’zilarining tanqidiy matnini yaratishdi. Eski o‘zbek adabiy tili xususiyatlarini o‘rganishda A.Rustamov, E.Umarov, S.Ashirboev, H.Dadaboev, B.Yusupov, U.Sanaqulov, B.O‘rinboev, A.Matg‘oziev, M.Qodirov, Z.Hamidov, A.Ibrohimov va boshqalarning izlanishlari e’tiborga molik.

Shuning bilan birga, (“Boburnoma”) (Blagova 1955), “Shayboniynoma” (Turabova 1966), “Shajarai tarokima” (Kononov 1958), “Shajarai turk” (Ivanov 1969) va “Zarbulmasal” (Is’hoqov 1976) asarlari tili o‘rganildi va bularidan ba’zilarining tanqidiy matni ham yaratildi.

B.Ahmedov o‘zining tarixga oid izlanishlarida “Fatxnomma”, “Shayboniynoma”, “Mehmonnomai Buxoro”, “Tarixi Muqimxoniy”, “Ubaydullanova”, “Tarixi Abulfayzxoni” asarlari qatorida “Tavorixi guzida – Nusratnama” haqida ham qisman to‘xtalib, XVI-XVIII asrlardagi O‘rta Osiyo tarixiga oid qimmatli ma’lumotlarni keltiradi[14]. Xususan, davr sharoitining murakkabligi, Movarounnahr xalqlarining ba’zi noroziliklari, Samarqand, Buxoro,

O'sh, Axsi, Andijon, Qarshi, Qorako'l va O'rta Osiyoning boshqa shaharlari dagi qo'zg'olon sabablari manbada to'liq ochib berilishi aytib o'tiladi. Shuningdek, olim asarni ikki mustaqil qismdan "Tavorixi guzida" va "Nusratnoma"dan iborat, deb yozgan[15,187-189].

O'tgan asrning 60-yillarida matnshunoslik tadqiqotlari asarning matn va kompozitsiya tarixini, uning barcha mavjud bo'lgan nusxa va qisqartirilgan variantlarini o'rganish natijalari "Tavorixi guzida – Nusratnoma"ning asl qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelmaganligini ko'rsatdi. Sharqshunos olim Anvarjon Akramovning asar qo'lyozmalarini ilmiy istifodaga kiritgani ahamiyatli bo'lib, u amalga oshirgan tanqidiy matn muallifnikiga bir oz yaqinligini e'tirof etish mumkin. U asarning barcha mavjud nusxalarini o'rganib, tayyorlagan qiyosiy matni asosida 1965 yilda nomzodlik ishini himoya qilib[16,23], 1967 yilda asarning faksimilesini nashr etdi[17]. A.M.Akramovning "Tavorixi guzida" – "Nusratnoma" bo'yicha amalga oshirgan ishlari diqqat va tahsinga sazovordir.

Manbashunoslikning asosiy vazifasi tarixiy manbalarning dastlabki, muallif tomonidan yozilgan nusxasi dastxatini topish va agar original nusxa yo'qolib ketgan bo'lsa, u holda asarning mavjud ko'chirma nusxalarini o'zaro bir-biriga taqqoslab, solishtirish yo'li bilan uning dastlabki nusxasiga yaqin bo'lgan tanqidiy matnni tuzish va keng jamoatchilikka yetkazishdan iboratdir.

O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid manbalarni o'rganish va ularni ommalashtirish ishlarida o'zbek olimlari ham bir qancha salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Tarixiy asarlarning tarixiy matnni tuzish g'oyat mashaqqatli ish bo'lib, tadqiqotchidan uzoq yillar mobaynida chidam va matonat bilan mehnat qilishni talab etadi. Shunga ko'ra, O'zFA Sharqshunoslik institutining ilmiy xodimi Anvar Akramovning o'zbek xalqi tarixiga oid muhim manbalardan bo'lmish "Tavorixi guzida – Nusratnoma" asarining tanqidiy matnni tuzib, chop etishi tahsinga sazovor ishdir. Olimning 1965 yildagi filologiya fanlari nomzodi darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi yuqoridaq ish uchun tamal toshi bo'lgan edi. Ish uch bo'lim va ikki bobdan iborat bo'lib, u asar haqidagi umumiy ma'lumotlar, barcha nusxalar matnining manbashunoslik nuqtai nazaridan olib borilgan tadqiqi, asar tanqidiy matnni tuzishda e'tiborga olingan tamoyillar hamda asar mundarijasining rus tilidagi annotatsiyasidan iborat. Uchinchi bo'limda asarning arab yozuvidagi tanqidiy matni to'liq keltiriladi.

A.Akramov "Tavorixi guzida - Nusratnoma"ning tanqidiy matnni tuzishda asarning yettita nusxasidan foydalangan, asosiy nusxa sifatida esa, London nusxasini tanlagan, chunki bu nusxa boshqalariga nisbatan mazmunan to'laroq va xattot tomonidan xatolarga kamroq yo'l qo'yilgan nusxa hisoblanadi. Tadqiqotchingan aniqlashicha, Leningrad nusxasi London nusxasidan, Toshkentda saqlanayotgan nusxalari esa, ularning "O'g'uz, Alanquvo va Shayboniynoma" nusxasidan ko'chirilgan. London nusxasi 1504 yil (909 hijriy) voqealari bilan tugallanadi. Toshkent nusxasi esa 1510 yil (916 hijriy), ya'ni Shayboniyxonning vafotigacha bo'lgan davrni

o‘z ichiga oladi. 1967 yilda nashr qildirilgan faksimile nusxada ham har ikki London va Toshkent nusxalarining tanqidiy matni birin-ketin bosilgan va bu bilan “Tavorixi guzida - Nusratnoma”ning mukammal matni tiklangan.

Asar tanqidiy matnini tuzishda tadqiqotchi uning turli nusxalari o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish bilan chegaralanib qolmay, balki bu farqlarning kelib chiqish sabablarini ham tekshirgan. A.Akramov o‘zi tahlil qilayotgan manba nomining to‘g‘ri o‘qilishi xususida va bu asarning muallifini aniqlash borasida ham nozik ilmiy mulohazalar yuritgan.

Olimning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, London va Peterburg nusxalarining boshlanishi bir xil bo‘lsa ham, ikkinchi nusxada hikoyalar tartibsiz joylashgan. London nusxasining o‘qib bo‘lmaydigan qismlari Peterburg nusxasida ma’nosiz jumlalar yoki so‘zlar sifatida paydo bo‘lgan. Bizningcha, Peterburg nusxasining xattoti London nusxasini to‘liq tushunmagan holda qanday bo‘lsa, shu holicha noto‘g‘ri ko‘chirgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bu nusxada xronologiya ham buzilgan. A.Akramovning fikriga ko‘ra asarni chig‘atoq tilini bilmaydigan, Markaziy Osiyoda tug‘ilmagan kishi tomonidan Hindistonda ko‘chirilgan. Tadqiqotimiz davomida yuqorida tilga olingan kamchiliklarga: xattot o‘ziga xos ismlar, qabila va joy nomlarini yozishda, voqealarning davriy ketma-ketligida ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yanligining guvohi bo‘ldik.

Ishning qimmatli jihatlaridan yana biri shuki, unda har bir bob yoki hikoyaning qisqacha mazmunidan xabardor etuvchi sharhli mundarijalar berilgan. Ular o‘z navbatida tarixiy voqealar uchun ko‘rsatkich rolini o‘tab, kitobxonga uning o‘zi qiziqqan voqe va hodisani qo‘lyozmadan (ya’ni tanqidiy matndan) tez va oson topib olish imkonini beradi. Kitobda asarning tanqidiy matni foto holida berilgan, bu narsa tadqiqotdan faqat tarixchi yoki filolog mutaxassislarininggina foydalana olishiga imkon beradi. Ba’zi sahifalarning aksini to‘liq o‘qib bo‘lmaydi. Asarni keng o‘quvchilar ommasiga yetkazish ehtiyoji uning hozirgi o‘zbek alifbosida chop etilishini taqozo etadi. “Tavorixi guzida – Nusratnoma” Toshkent nusxasining topilishi tanqidiy matnni ancha to‘latdi. Afsuski, ana shu nodir nusxa haqida bat afsil ma’lumot bermagan. Loaqlar, bu nusxadan olingan parchaga sharhli mundarija ham tuzilmagan. Shunday bo‘lsa ham, o‘zbek halqi, shuningdek, O‘rta Osiyodagi boshqa xalqlar tarixiga oid qimmatli manba bo‘lmish “Tavorixi guzida - Nusratnoma” tanqidiy matnining A.Akramov tomonidan tuzilishi manbashunoslikka qo‘shilgan katta va muhim hissa bo‘ldi, bu nodir asar mukammal nusxasining e’lon qilinishi XV-XVI asrlarda O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy hayotni, davr tilini o‘rganish va uni yoritishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

A.Akramovdan so‘ng 1994 yilda ushbu asarni filologiya fanlari nomzodi A.L.Xalilov o‘z nomzodlik dissertatsiyasi uchun ob’ekt qilib oldi[18]. Ish ikki bobdan iborat bo‘lib, birinchi bobda asardagi ot kategoriylar, ikkinchi bobda fe’lga xos grammatik kategoriyalarning ifodalanishi tahlil qilingan. A.Xalilov ham asar muallifi to‘g‘risidagi A.Ibrohimovning fikrini tasdiqlab, o‘z

ilmiy tadqiqotida har ikki asar tilini bir qator grammatik kategoriyalar bo'yicha taqqoslaydi[19,10] hamda "Nusratnama"ning muallifi Muhammad Solih emas, degan xulosaga keladi. A.Xalilov eski o'zbek tilida nazmiy asarlar tili nasriy asarlar tilidan keskin farq qilishini[20] hisobga olgan holda "Tavorixi guzida - Nusratnama" va "Shayboniynoma" asarlari o'rtasidagi farqlar va o'ziga xosliklarni aniqlab, dissertatsiya ishining kirish qismida misollar asosida bayon etgan.

A.Xalilov dissertatsiyada asosan tarixiy-qiyosiy metoddan foydalangan bo'lib, asar tilining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda boshqa yozuvdagi yodgorliklar tili bilan solishtiradi. Grammatik shakllarning xususiyatlarini to'laroq yoritish uchun hozirgi o'zbek va boshqa turkiy til materiallariga, o'zbek shevalari matnlariga, tadqiqot metodini belgilashda o'zbek va rus turkiyshunoslarining ilmiy ishlariga tayangan.

Keyingi yillarda asarni o'rganishga turkiyalik olimlar ham katta qiziqish bildirishmoqda. Ular asarni turli aspektida tadqiq etdilar. Masalan, Anqara universiteti olimi Harun Kaya o'zining doktorlik dissertatsiyasida asarni manbashunoslik, tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rganadi[21]. Tadqiqot ishining kirish qismida olim islom tarixnavisligining tug'ilishi, arab va fors tarixshunosligi, mo'g'ullar istilosi bilan bog'liq fors tarixshunosligi, turkiy tarixshunoslik kabi masalalarga to'xtalib o'tadi. "Zafarnoma", "Tarixi mulki ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Zubdatut tavorix", "Shajarai tarokima", "Chingiznama", "Shayboniynoma", "Tavorixi guzida - Nusratnama" kabi asarlarga to'xtalib, ular haqida umumiy ma'lumotlarni keltirgan.

Anqara universiteti tarixchi olimi D.Ochirpurev asardagi turk-mo'g'ul tarixining yoritilishi nuqtai nazaridan baho bergen va shu nuqtada turib tadqiqot olib borgan[22].

Xususan, magistrlik dissertatsiyasi doirasida matnshunoslik nuqtai nazaridan 1a-47b sahifalarini O'mer Chakmakchi[23], 48a-94b orasidagi sahifalarni Ahmet Karatash o'rgangan bo'lsa[24], 95a-149a o'rtasidagi bo'limlarni Sumeyra Alanlar Munevver Tekchan rahbarligida tadqiq etgan[25].

Turkiyaning Ege universiteti Turkiy tillar va lahjalari bo'limida faoliyat olib borgan Avazxon Umarov ham 2022 yilda "Tavorixi guzida - Nusratnama" asari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqladi[26]. Tadqiqot ishining birinchi bo'limi Harun Kayaning doktorlik dissertatsiyasi strukturasiga o'xhash bo'lib, unda ko'rsatilgan tarix kitoblari qatorida Shayboniyxon va uning tarixiga oid asarlarga ham to'xtalib o'tgan. Tadqiqot ishining ikkinchi bo'limi asar tilining fonetik va morfologik xususiyatlariga bag'ishlanadi. Asar matni bu ikki sath doirasida tadqiq etilar ekan, zamonaviy turk tili kategoriyalari, til qonuniyatları olimning diqqat markazida turadi. Tahlillar ulardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Dissertatsiyani o'rganib chiqar ekanmiz, zamonaviy turk tilshunosligida an'anaviy metodlar va qarashlar hali ham ustuvorlik kasb etishini kuzatdik.

## XULOSA

“Tavorixi guzida – Nusratnama” ilk turkiy tilli asarlardan biri bo‘lganligi, uning muallifi o‘zbek adabiyoti va adabiy tili rivojiga munosib hissa qo‘sghan Alisher Navoiy ijodiy an’analarining davomchisi sifatida gavdalanganligini alohida ta’kidlash lozim. “Tavorixi g‘uzida – Nusratnama”ning Shayboniyxonning buyrug‘i asosida turkiy tilda (eski o‘zbek tili) bitilgani, matnning hammaga tushunarli, sodda tilda yozilganligi o‘sha davrda o‘zbek tilining tobora ustunlik kasb etayotganidan dalolat beradi. Fikrimizcha, ushbu manbani keng ilmiy foydalanishga kiritish, matnni qayta tiklash, uni iloji boricha muallifning birinchi nuchxasiga yaqinlashtirish, transliteratsiyasini nashr etish kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, asar Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib, tarixiy ma’lumotlarga turli sharhlarning ham qo‘shilgani davriy qiyoslash uchun, tarixiy haqiqatni aniqlash uchun ishonchli manbalar sonini yana bittaga oshiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Semenov A.A. K voprosu o proisxojdении и sostave uzbekov Sheybanixana. – Stalinabad, 1954. – S. 70.
2. Vamberi X. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. – T.: G‘afur G‘ulom, 1990. – B. 91-92.
3. Ryo Ch. Catalogue of the Turkish Manuscripts in British Museum. Londra. 1988. – R. 276-280; [Catalogue of the Turkish manuscripts in the British museum : British Museum. Dept. of Oriental Printed Books and Manuscripts : Free Download, Borrow, and Streaming : Internet Archive](http://www.bl.uk/collections/manuscripts/turkish/)
4. Petrov K.I. Ocherki feodalnykh otnosheniy u kirgizov v XV-XVIII vv. – Frunze, 1961; Petrov K.I. K istorii dvijeniya kirgizov na Tyan-Shan i ix vzaimootnosheniy s yortami v XIII-XV vv. – Frunze, 1961.
5. Bartold V.V. Otchet o komandirovke v Turkestan // Zapiski Vostochnogo Otdeleniya Imperatorskogo Russkogo Arxeologicheskogo Obщestva. Tom pyatnadsaty. 1902-1903. – SPb.: Tipografiya Imperatorskoy Akademii Nauk, 1903. – S. 183-184, 186.
6. <https://iranicaonline.org/articles/salemann-carl-hermann>
7. Allamurod Annaboy o‘g‘li. O‘g‘uz, Alanquvo va Shayboniy nomma. O‘FA sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. – B. 99b.
8. Malikov A.M. “Istoriya Oguza, Alankuva i Sheybani” Alla Murada Annaboy oglisi. //Sharkshunoslik. 2008, №13. – S. 58-63.
9. Muqminova R.G. Borba za Maverannaxr mejdu timuridami i sheybanidami (K istorii obrazovaniya uzbekskogo gosudarstva sheybanidov) Avtoreferat dis. na soiskanie uchen. step. kand. ist. nauk – Leningrad, 1949. – 14 s.; Azimjonova S.A. K istorii Ferganiy vtoroy poloviny

XV v. – Tashkent, 1957. – 94 s.; Ahmedov B.A. Gosudarstvo kachevых uzbekov. – Moskva: Nauka, 1965. – 195 s.; Ibragimov S.K. Materialы по истории казахских ханств XV-XVIII веков. / Sost. S.K.Ibragimov, N.N.Mingulov, K.A.Piщуліна, V.P.Yudin. – Alma-Ata: Nauka, 1969. – 651 s.; Bekmuradov S.T. “Tavarix-i guzida – Nusratnoma” asari Markaziy Osiyo tarixi haqida ma’lumot beruvchi manba sifatida. – Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022, August. Volume 2 | Issue 8. – 133-143 r.

10. Ibragimov S.K. Materialы по истории казахских ханств XV-XVII веков (Izvlecheniya iz persidskix i tyurkskix sochineniy) / Sost. S.K.Ibragimov, N.N.Mingulov, K.A.Piщуліна, V.P.Yudin. – Alma-Ata: Nauka, 1969. – 651 s.;

[https://books.google.co.uz/books?id=dIAGAwAAQBAJ&printsec=frontcover&source=gbs\\_atb&redir\\_esc=y#v=onepage&q&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=dIAGAwAAQBAJ&printsec=frontcover&source=gbs_atb&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false) ; <https://kazneb.kz/kk/bookView/view?brId=1180118>

11. Materialы по истории казахских ханств XV-XVIII веков. (Izvlecheniya iz persidskix i tyurkskix sochineniy). – Alma-Ata: Nauka, 1969. – 624 s.

12. Vasileva O.V., Yastrebova O.M. XV-XVII asrlar Movarounnaxr kitobat san’ati (Rossiya milliy kutubxonasi to’plamidan, Sankt-Peterburg, Rossiya). – T.: Silk road media, 2020. – B. 24-25.

13. Lerx P. Arxeologicheskaya poezdka v Turkestanskiy kray v 1867 godu. – SPb, 1870. – S. 20-21; [https://archive.org/details/1867\\_20220416/page/39/mode/2up](https://archive.org/details/1867_20220416/page/39/mode/2up)

14. Ahmedov B. O’rta Osiyoning XV-XVIII asrlar tarixiy-jo‘g’rofiy adabiyoti (yozma yodgorliklar). – T., 1985.

15. Ahmedov B. O’zbekiston tarixi manbalari (Qadimgi zamon va o’rta asrlar) – Toshkent: O’qituvchi, 2001. – B. 187-189.

16. Akramov A.M. Tavarix-i guzida - Nusrat-name: Sochinenie anonimnogo avtora XVI v.: Avtoreferat dis. na soiskanie uchen. stepeni kandidata filol. nauk. – Tashkent: Nauka, 1965. – 23 s.

17. Tavarix-i guzida-Nusrat-name / Isledovanie, kriticheskiy tekst, annotirovannoe oglavlenie i tablitsa svodnykh oglavleniy kandidata filol. nauk A.M.Akramova. – T.: Fan, 1967. – 630 s.

18. Xalilov A.L. “Nusratnoma” asari tilining morfologik qurilishi (Grammatik kategoriylar). Fil.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 1994. – 142 b.

19. Xalilov A.L. “Nusratnoma” asari tilining morfologik qurilishi (Grammatik kategoriylar). Fil.fan.nom.diss. – Toshkent, 1994. – B. 10.

20. Щербак A.M. Grammatika starouzbekskogo языка. – M., - L., 1962. – S. 226.

21. Harun K. Tevārīh-i güzide Nuşret-nâme (giriş-metin-notlar-dizin-tipkibasim). Doktora Tezi. – Ankara, 2019. – 756 s.

22. Ochirpurev D. *Tevârih-i Güzide-Nusretnâme'nin Türk-Moğol Tarihi Açısından Değerlendirilmesi*. Basılmamış Doktora Tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2021.
23. Çakmakçı Ö. *Târih-i Güzîde (Nusret-nâme)* [1a-47b] (Giriş, Transkripsiyonlu Metin, Dizin-Sözlük, Tipkîbasım). Basılmamış Yüksek Lisans Tezi. Kocaeli Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. Kocaeli, 2017.
24. Karataş A. *Târih-i Güzîde (Nusret-nâme)* [48a-94b] (Giriş, transkripsiyonlu metin, dizin-sözlük, tipkîbasım). Basılmamış Yüksek Lisans Tezi. Kocaeli Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Kocaeli, 2018.
25. Alan S. *Târih-i Güzîde (Nusret-nâme)* [95a-149a] (Giriş, transkripsiyonlu metin, dizin-sözlük, tipkîbasım). Basılmamış Yüksek Lisans Tezi. Kocaeli Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Kocaeli, 2020.
26. Umarov A. “*Tevârîh-i güzîde Nuşret-nâme*” hakkında bir inceleme. Doktora Tezi. – İzmir, 2022. – S. 979.